



SYMBOLIC MEANING AND ANALYSIS OF SURKHAN NATIONAL DRESSES

Raximqulova Sarvinoz Abdurashid qizi

Qarorova Sitara o'ktam qizi

E-mail: sarvinozraximqulova1990@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18219213>

ARTICLE INFO

Received: 04th January 2026

Accepted: 11th January 2026

Online: 12th January 2026

KEYWORDS

National costume, color, yarn, fabric, textiles, clothing, fabric, past, clothing.

ABSTRACT

This article studies the unique costumes, ancient decorative items and rich history of the Surkhan oasis, and studies the characteristics of the fabrics of the costumes, the decorative patterns used in them, and the unique embroidery that is not found in other oases.

СУРХОН МИЛЛИЙ ЛИБОСЛАРИНИНГ РАМЗИЙ МАНОЛАРИ ВА ТАКСЛИЛИ

Раксимгулова Сарвиноз Абдурашид кызы

Каророва Ситора октам кызы

E-mail: sarvinozraximqulova1990@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18219213>

ARTICLE INFO

Received: 04th January 2026

Accepted: 11th January 2026

Online: 12th January 2026

KEYWORDS

Национальное платье, цвет, нитки, марля, ткань, одежда, ткань, прошлое, одежда.

ABSTRACT

В данной статье изучены древние уникальные костюмы, орнаменты и богатая история Сурхандарьинской области, изучены особенности тканей, использованные в них декоративные узоры и уникальные вышивки, не встречающиеся в других оазисах.

SURXON MILLIY LIBOSLARINING RAMZIY MANOLARI VA TAXLILI

Raximqulova Sarvinoz Abdurashid qizi

Qarorova Sitara o'ktam qizi

E-mail: sarvinozraximqulova1990@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18219213>

ARTICLE INFO

Received: 04th January 2026

Accepted: 11th January 2026

Online: 12th January 2026

KEYWORDS

Milliy libos, rang, ip, gazlama, to'qimachilik, kiyim-kechaklar, mato, o'tmish, kiyim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Surxon vohasining betakror liboslari, qadimiy bezak buyumlari hamda boy tarixini o'rganilib, liboslarni matolarini xususiyatlari ularda qo'llanilgan bezak naqishlari hamda boshqa vohalarga bo'lmagan betakror kashtalarini o'rganildi.



O'zbek xalqining o'tmishdagi kiyim-kechaklari bilan bog'liq ma'lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniatyuralari beradi. O'rta asrlarga oid miniatyuralar o'zbek kiyimlarining o'ziga xos uslubi, ya'ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko'rsatuvchi noyob namunalardir. [1]

Surxondaryo yana qadimiy yerosti saroylari va moddiy-madaniyat yodgorliklariga boy bo'lib, ushbu o'lkaning qadimiy madaniyati bundan dalolat berib turadi. Surxondaryo hududida arxeolog olimlar tomonidan topilgan Dalvarzintepa, Ayritom, Sopollitepa, Fayoztepa, Bolaliktepa kabi qadimiy tarix, madaniyat va san'at obidalaridan topilayotgan nodir ashyolardagi tasvirlar bu joydagi liboslar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.[2]

Surxondaryo o'zining moy madaniyati hamda tarixiga ega go'sha xisoblanadi. O'zining qadimgi liboslari bilan bir qatorda boy madaniy meroslariga egadir. Davlavin tepa yodgorligi yoki Xolchayon maqbaralari bunga dalillik beradi. U yerdan topilgan boy meroslar xalqning qanchalik xunarman bo'lganiyu va ularning tarixini o'rganishga yordam berishi mumkin.

Liboslar nafaqat insonlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatlarini, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyliigi, quvonchli yohud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi. Kiyim jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Bir tomondan, u inson mehnati mahsuli sifatida ma'lum bir moddiy qiymatga ega bo'lib, ma'lum bir ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomondan u amaliy-bezak san'ati namunasi hamdir.

Bugungi kun zamonaviy o'zbek liboslari shaklan katta o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, an'anaviy bichim yangi ko'rinishlarda yashashda davom etmoqda. Ayniqsa mustaqillik yillarida milliy xunarmandchilikka bo'lgan e'tiborning kuchayishi milliy mato to'quvchiligining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada milliy matolardan turli bichim va shaklda tikilgan liboslar kundalik va bashang liboslar qatoridan o'rin olib, an'ana va qadriyatlar asrlar osha yashab qolishini yana bir bor tasdiqladi. [3]

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, milliy libosni, hatto eng an'anaviy ko'rinishida ham, o'zgarmagan deb hisoblash mumkin emas: u ma'lum bir evolyutsiyani, ba'zan esa shakllarning o'zgarishini ko'rsatadi. O'rta yoshli odamlar ko'pincha 20-asrning 40-yillarida ishlab chiqilgan va tarqalgan milliy kiyim variantini kiyishadi. Keksalar, ayniqsa, chekka qishloq ayollari har kim kiyib yurgan milliy liboslarini saqlab qolishadi. Farqlar faqat materialning rangi va sifati bilan chegaralangan.



1- Rasm. Surxondaryo ayollari liboslari, bosh kiyim hamda zargarlik buyumlari.

Kiyimlarga kashtalar nafaqat go'zallik va estetik did berish uchun tikilgan, shuningdek ular diniy asoslarga ham ega bo'lgan. Xususan bunday bezaklar ayollar, bolalar va kelinchaklarni yomon ko'zdan asraydi, deb hisoblangan. Ayollarning kiyimlarini zargarlik bezaklarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Surxondaryoda zargarlik buyumlari xuddi kiyimlar kabi ushbu mintakaning etnik turmush tarziga xos bo'lgan, alohida ajralib turadigan xususiyatlarga ega.

Kashtado'zlik naqshlari tasodifan tanlanmagan. U har doim sehrli yoki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Chizmadan ijtimoiy mavqeni tushunish mumkin edi, ba'zida unga boshqa ma'nolar ham kiritilgan. Masalan, ortiqcha oro bermay takrorlanadigan geometrik naqsh o'ziga xos tumordir. To'q ko'k, qora rangdagi matolardan tikilgan liboslar O'zbekistonning hech bir hududida kiyilmagan. So'g'd naqshlari zardushtiylik ta'sirini saqlab qolgan. Ushbu mintaqadagi ranglar jamiyatdagi mavqega qarab tanlangan. Misol uchun, ayolning libosida ko'k va binafsha ranglarning keng tarqalganligi erining yuqori mavqei haqida gapiradi va yashil rangli naqshlar ko'pincha dehqonlar va hunarmandlar tomonidan ishlatilgan.[4]

Ushbu mintaqa uchun an'anaviy, o'ziga xos kiyimlar aholining xujalik yuritishi, estetik qarashlari asosidagi hayot tarzi va iqtisodiy omillarning o'ziga xos jihatlari inobatga olgan xolda tayyorlangan. Kiyimlarda ajdodlarning ko'p asrlilik an'anaviy va badiiy yaratuvchanlik goyalari yakkol ifodalangan. Ularda boshqa elementlarga nisbatan xalqning milliy xarakteri, etnik tarixi ildizlariga borib taqaladigan an'analari, ijtimoiy munosabatlari va mafkuraning ayrim elementlari ko'proq ifodalangan. U kishilarning moddiy farovonligi, ularning didlari, xujaligining ayrim o'ziga xosliklari va oilaviy turmushining ba'zi tomonlarini aks ettiradi.

Kundalik va bayram kiyimlari uchun ayollar, mahalliy, qo'l-bola ip-gazlama va yarim shoyi matolardan yo'l-yo'l olacha, bo'z, janda va hokazodan foydalanganlar. Boysunda olachaning "nor po'sti", "qirmizi", "mozori" va "amiri" nomdagi turli xil navlarini ishlab chiqarganlar.



Surxondaryo aholisi milliy kiyimlarining noyob namunalari aholining ijtimoiy ahvolidan kelib chiqqan holda taqdim etilgan: erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari; yosh ayollar, o'rta yoshdagi erkaklar va ayollar, keksalar kiyimlari.

Ayollar ko'ylagining yoqasi vertikal kesilgan bo'lib, ko'p joylarda butun bo'yiga gulli jiyak (tasma) tikilgan. Shahrisabz, Qarshi va Surxondaryo jiyak ipak ip bilan but shaklida to'qilgan. Ko'pchilik joylarda yoshi katta ayollar oddiy jun, chilvir yoki qoramtir yo'l-yo'l mato parchasini jiyak qilib ishlatgan. Asrimiz boshlarida bunday ayol ko'ylaklari kam saqlangan.

Xulosa: Surxon milliy liboslarini o'rganish Surxon vohasi xalqining etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa hududlar va xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tadqiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezondir. Liboslarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotidagi quvonchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi.

References:

1. Mirzaeva Shaxrinsa, Asqarova Munajat Husanovna O'ZBEK MILLIY ETNO-LIBOSLARI TARIXIGA BIR NAZAR // Oriental Art and Culture. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-milliy-etno-liboslari-tarixiga-bir-nazar> (дата обращения: 23.02.2024).
2. D.Rahmatullayeva. Kostyum va moda tarixi: – Toshkent: «Niso-Poligraf», 2017
3. U.S.Rahmatullayeva S.A. Raximqulova. Surxondaryo kostyumi va ularning ramziy ma'nolari. «Тенденции развития текстильной промышленности: проблемы и пути решения» (218-220 betlar) 23-24 aprel 2021 yil.
4. Рахматуллаева У.С., Рахимкулова С.А., Ташпулатов С.Ш. Электронная база декоративных элементов // Свидетельство на программный продукт DGU 14342 по заявке DGU 2021 4174 от 15.12.2021
5. S.A.Raximqulova ,U.S.Rahmatullayeva. Kashtadagi jilolar taxlili va ularning ramziy ma'nolari. To'qimachilik va yengil sanoatsohalarida innovasion texnologiyalarni joriy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalarining tutgan o'rni mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferensiyasi. (129-132 betlar) 29-30 aprel 2022 yil.
6. S.A.Raximqulova, D.X. Temirova. O'zbekmilliytaqinchoqlarivohalardabir-biridan farqqilinishi.To'qimachilik va yengil sanoat sohalarida innovasion texnologiyalarni joriy ta'lim va ishlab chiqarish korxonalarining tutgan o'rni mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiyasi. (443-447 betlar) 29-30 aprel 2022 yil.
7. S.A.Raximqulova U.S. Rahmatullayeva A.N.Mamatmusayeva. ANALYSIS OF BOYSUN EMBROIDERY AND ITS MEANINGS. International journal of social science& interdisiplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor 7.429 vol. 11 NO. 06 (2022) june 156 - 159 bet.
8. S.A.Raximqulova,U.S.Rahmatullayeva,S.A.Arayera SYMBOLIC MEANINGS AND METHODS OF EMBROIDERY International journal of
9. Toshbekov, O., Urazov, M., Ermatov, S., & Khamraeva, M. 2023). Efficient and economical energy use technology in the processing of domestic coarse wool fiber. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 461, p. 01068). EDP Sciences.



<https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85182755916&origin=resultslist>

10. Toshbekov, O., & Mustonova, Z. Determining the Abrasion Resistance and High Adaptability Properties for Noise Absorption of Non-Woven Fabrics. *Eurasian Journal of Academic Research*, 3(12 Part 2), 2023.217–221. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/25279>

11. Kurbanov A., Shomirzaev M., Tursunov S., Toshbekov O., Mukhamadieva N., Kambarov B., Mannobova S. Analysis of the state of cultivation and harvesting of mung bean and agro-biological requirements for threshing and separating its grain. In *BIO Web of Conferences* (2024). (Vol. 105, p. 02010). EDP Sciences. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85192513268&origin=resultslist>

12. Sultonova, F., Toshbekov, O., Urozov, M., Boymurova, N., Mustanova, Z., & Boltaeva, I. (2025, November). Enhancing and evaluating the characteristics of specialized workwear for employees in the electric power supply sector. In *American Institute of Physics Conference Series* (Vol. 3331, No. 1, p. 050006). https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LYt4ficAAAAJ&citation_for_view=LYt4ficAAAAJ:dhFuZR0502QC

13. Jumaniyozov, K., Urozov, M., Toshbekov, O., Salimova, M., Raximova, K., & Khursandova, B. (2025, November). Enhancement of energy-efficient cleaning equipment. In *American Institute of Physics Conference Series* (Vol. 3331, No. 1, p. 050007). https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LYt4ficAAAAJ&citation_for_view=LYt4ficAAAAJ:7PzlFSSx8tAC

14. Toshbekov, O., Urozov, M., Sultonova, F., Raximqulova, S., Mustanova, Z., & Xulkaliyeva, G. (2025, November). Analysis of the thermal conductivity of nonwoven fabrics made from silkworm cocoons and their influence on ambient temperature. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3331, No. 1, p. 050005). AIP Publishing LLC. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LYt4ficAAAAJ&citation_for_view=LYt4ficAAAAJ:L8Ckcad2t8MC

15. Abdullayevich, T. O., & Qizi, S. M. A. (2024). DAG'ALJUN TOLASI ASOSIDA OLINGAN NOTO 'QIMA MATOLARNING TURLARI, QO 'LLANILADIGAN SOHALARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(12-2), 12-17. https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=LYt4ficAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=LYt4ficAAAAJ:Wp0glr-vW9MC&view_op=view_citation

16. Abdullayevich, T. O., & Qizi, S. M. A. (2024). TIG'O'TKAZMAYDIGAN NOTO 'QIMA MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(12-2), 7-11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LYt4ficAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=LYt4ficAAAAJ:aqlVkmm33-oC